



USA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE



INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



25 MAY
2025 YEAR

USA, WASHINGTON

Info.interconf@mail.ru

www.interonconf.org



INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

Part 52

MAY 2025

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

Washington, USA
25th May 2025

INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection scientific works of the International scientific conference (25th MAY , 2025) – Washington, USA: "CESS", 2025. Part 52 – 369p.

Editorial board:

Martha Merrill, PhD Kent State University, USA

David Pearce, ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva, PhD Toronto, Canada

Nikadambayeva Hilola Batirovna, Candidate of Pedagogical Sciences,
docent

Pirimov Akram Pirimovich, docent

Shodiyev Furqat Davranovich, Candidate of Technical Sciences, docent

Languages of publication: русский, english, казахша, o'zbek, limba română,
кыргыз тили, Azərbaycan

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference "**INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM**". Which took place in Washington on May 25, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2025
© Authors, 2025

TABLE OF CONTENTS	
Rayimqulov Firdavs Azimjon o'g'li Abdumannonova Muborakxon Abdupulat qizi Mansurova Dilorom Aslonovna ORQA MIYA VA UNING QOBIQ QATLAMLARI: MORFOLOGIK TAHLIL	13
Khakimjonova Kamolakhon Rasul YENİ TEKNOLOJİLER ÇAĞINDA GELİŞEN MODERN DİŞ HEKİMLİĞİNİN İŞGÜCÜ PİYASASIYLA ENTEGRASYONU	17
Ботиров Ж.Э MECHANISMS OF FINANCIAL REGULATION OF INTEGRATION PROCESSES	22
Aliqulov Abdujabbor Maxamadi o'g'li KORVERGENT TAHRIRIYATLARDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR, YECHIM VA GIPOTEZALAR.	28
Xojamurotova Jasmina Tursinbaeva Munisa Davlatova Aziza Jumabaeva Mashhura "SCINTILLYACÍYALÍQ SCHETCHIKTÍN JÁRDEMINDE GAMMA NURLANÍWDÍN ENERGIYASÍN ANÍQLAW" LABORATORIYA JUMÍSÍNDÁ SPEKTR SÍZÍQLARÍN KALIBROVKALAWDÍ ÚYRENIW	31
Madrimova Nargiza Sharifbayevna ANALYSIS OF DEVELOPMENT INDICATORS OF ONLINE TRADE IN UZBEKISTAN	36
Madrimova Nargiza Sharifbayevna Fayzullayev J. S ONLAYN SAVDO PLATFORMALARIDA YUZAGA KELAYOTGAN TOVLAMACHILIKLAR VA ULARGA QARSHI OPTIMAL YECHIMLAR TAHLILI	45
Mashhura Jo'raqulova "THE COVERAGE OF CLIMATE CHANGE IN THE MEDIA"	54
Muzaffarova Iroda A CROSS-LINGUISTIC EXPLORATION OF CONCEPT IN ENGLISH AND UZBEK"	58
Tursunova Madinabonu Rustamjon qizi Tursunova Muattarxon Muzaffar qizi Yusupova Raximaxon Alijanovna	63

TEMIR TANQISLIGI ANEMIYASI	
Farangiz Izzatullayeva “WHAT I LEARNED ABOUT HIGHER EDUCATION WHILE STUDYING ABROAD: A STUDENT’S PERSPECTIVE FROM UZSWLU TO WILSON COLLEGE”	66
Mamazoyitova Robiyaxon COMPARATIVE STUDY OF STYLISTIC DEVICES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES	70
Tursunaliyeva Moxira LINGO ASSOCIATIVE UNITS AND THE THEORY OF “FIELD” IN LINGUISTICS	74
Zokirova Mubina Rustamovna Mamadjanova Dildora Ulugbekovna BACK FORMATION IN ENGLISH: HOW NEW VERBS LIKE “EDIT” EMERGE	78
Mirzayeva Sabrina Mamadjanova Dildora Ulugbekovna THE ROLE OF INTONATION IN EXPRESSING EMOTION IN ENGLISH SPEECH	81
Qudratillayeva Madina Mamadjanova Dildora Ulugbekovna HOW POLYSEMY CHALLENGES ENGLISH LEARNERS: A LOOK AT COMMON EXAMPLES	84
Maksudova Mukhlisa Mamadjanova Dildora COMPOUNDING IN ENGLISH: FROM LAPTOP TO BINGE-WATCH	87
Zakirova Sabina JADIDLAR: MILLIY UYG‘ONISH HARAKATI VA UNING TARIXI	89
Mukhitdinova Munisa Mamadjanova Dildora Ulugbek kizi THE USE OF FILLER AND HEDGES IN SPOKEN ENGLISH: PRAGMATIC FUNCTIONS	91
Jonobilova Zulhumor Mamadjanova Dildora Ulugbek kizi IDIOMS AND NON-LITERAL MEANING: A SEMANTIC PUZZLE FOR NON-NATIVES	94
Muhammadsobirova Gulchehra	96

Mamadjonova Dildora Ulug'bekovna WHY ENGLISH LEARNERS STRUGGLE WITH SUBJECT-VERB AGREEMENT	
Abduqayumova Soliha Islomova Farida Komiljonovna Mamadjanova Dildora Ulugbekovna WORD ORDER VARIATION IN QUESTIONS AND STATEMENTS: A SYNTAX PERSPECTIVE	98
Рамазанов Шохрух Шохназарович РУССКАЯ ЛИТЕРАТУРНАЯ КРИТИКА XIX ВЕКА КАК ИСТОЧНИК ПОЭТИКИ ВРЕМЕНИ.	100
Аманов Ф.Б Мавланов Л.Б НЕКОТОРЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ СЕЛЕКЦИИ ЛЬНА МАСЛИЧНОГО ДЛЯ БОГАРЫ УЗБЕКИСТАНА	103
Dildora Anvarova Anvarovna ISSUES OF SOCIAL PROTECTION OF MATERNITY IN UZBEKISTAN	106
Ablaqulova Safina Qobiljon qizi Egamberdiyeva Marjona Xusniddin qizi HESPERIDIN CITRUS MEVALARDAGI BIOFLAVONOID	111
Madaminova Ruhshona Ma'murjon qizi VODOROD ENERGIYASINING RIVOJLANISHI. ENERGETIKA SANOATINING KELAJAKDAGI RIVOJLANISHIDA VODORODNING ROLI.	114
Giyazova Nozima Bayazovna Ibragimova Sabina Akmal qizi INTERNET NARSALAR (IOT) VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA TA'SIRI	118
Giyazova Nozima Bayazovna Nabiyeva Ruxshona Sobir qizi KIBERXAVFSIZLIK VA RAQAMLI IQTISODIYOTDA XAVLARNI BOSHQARISH	125
Giyazova Nozima Bayazovna Saidova Mexrangiz Rustamovna RAQAMLI MEHNAT BOZORI VA MASOFAVIY ISHLASH	134
Kayumova Muyassar Urinbayevna METHODS OF FORMING B1 LEVEL PUPILS' LISTENING COMPETENCE IN ENGLISH CLASSES.	142

KIBERXAVFSIZLIK VA RAQAMLI IQTISODIYOTDA XAVLARNI BOSHQARISH

Giyazova Nozima Bayazovna

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakul'teti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, i.f.f.d (PhD)

Nabiyeva Ruxshona Sobir qizi

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblangan kiberxavfsizlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan birga, axborot xavfsizligi muammolari ham kuchaymoqda, shu sababli, kiberxavfsizlik sohasidagi asosiy muammolar va ularni hal etishning zamonaviy usullari, shu jumladan kiberxaflarning asosiy turlari phishing, ransomware, insayder tahdidlar, IoT xavflari ko'rib chiqiladi. Shuningdek mamlakatimizning kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro global reytingdagi o'rni va 2024 yilda internet milliy segmentida ro'y bergan intsidentlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Raqamli ma'lumotlar, internet milliy segmenti, elektron xukumat, raqamli iqtisodiyot, axborot xavfsizligi, phishing, ransomware, insayder tahdidlar, IoT xavflari, texnologiyalar, himoya, xavfsizlik strategiyalari, ma'lumotlar himoyasi, innovatsion yondashuvlar.

Abstract: This article is dedicated to addressing cybersecurity issues, which are considered one of the key factors in the development of the digital economy. Alongside the rapid advancement of the digital economy, challenges related to information security are also intensifying. Therefore, the paper explores major problems in the field of cybersecurity and modern methods of addressing them, including key types of cyber threats such as phishing, ransomware, insider threats, and IoT-related vulnerabilities. Furthermore, the article analyzes Uzbekistan's position in international cybersecurity rankings and reviews cyber incidents that occurred within the national internet segment in 2024.

Keywords: Digital data, national internet segment, e-government, digital economy, information security, phishing, ransomware, insider threats, IoT threats, technologies, protection, security strategies, data protection, innovative approaches.

Hozirgi kunda davlatimiz kun sayin texnologiyaga bo'lgan ilm fan rivojlanib bormoqda, nafaqat davlatimiz balki butun jahon raqamli dunyo bo'lmoqda. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga kirib keldi.

Onlayn to'lovlar, elektron hukumat, raqamli bank xizmatlari va elektron savdo ko'lamining ortishi raqamli iqtisodiyotga tayanishni kuchaytirdi.

Raqamli texnologiyalar rivoji bilan birga, kiberhujumlar va internet orqali sodir etilayotgan jinoyatlar soni ham ortib bormoqda. Bu esa axborot xavfsizligini ta'minlash zaruratini kun tartibiga olib chiqmoqda.

Bunda asosan e'tiborni raqamli shaxsiy ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish va axbarot vositachilarini himoya qilgan holda raqamli ma'lumot uzatish soddaligi va osson foydalanishni ta'minlashga qaratilishi lozim.

Hozirda nafaqat yirik korxonalar, balki oddiy foydalanuvchilar ham kiberxavflarga duch kelmoqda. Xususan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) asosidagi tizimlar bilan bog'liq xatarlarga e'tibor kuchaymoqda.

Dunyo miqyosida kiberjinoyatlar sababli yuzaga kelayotgan iqtisodiy zararlar yil sayin milliardlab dollarga yetmoqda. Bu esa davlatlar, kompaniyalar va foydalanuvchilar uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda.

O'zbekiston so'nggi yillarda raqamli transformatsiyaga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Biroq, kiberxavfsizlik sohasida kompleks yondashuv, mutaxassislar tayyorlash va milliy strategiya zarurati yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Bu yo'nalishdagi faoliyat endi-endi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda. Bundan tashqari, moliyaviy texnologiyalar sohasida Payme, Click, Apelsin kabi elektron to'lov tizimlari millionlab foydalanuvchilarga ega bo'lib, naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirmoqda.

Shu bilan birga, IT Park Uzbekistan va boshqa innovatsion markazlar faoliyati tufayli yuzlab startaplar raqamli xizmatlar va mahsulotlar yaratishga hissa qo'shmoqda. Ammo raqamli taraqqiyot bilan birga O'zbekistonda ham kiberjinoyatlar soni ortib bormoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2024 yilgi hisobotlariga ko'ra, kiberjinoyatlar soni 2023 yilga nisbatan 2,5 barobarga oshgan. Ayniqsa, bank to'lov tizimlariga va shaxsiy ma'lumotlar bazalariga qilingan hujumlar ko'p kuzatilmoqda.

Ayniqsa, bank kartalaridan noqonuniy foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, soxta sahifalar orqali aldash holatlari ko'paymoqda. Bu esa foydalanuvchilar orasida raqamli xizmatlarga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytiradi. Shu bois, raqamli muhitdagi xatarlarni aniqlash, baholash va samarali boshqarish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida kiberxavfsizlik masalasi nafaqat texnik, balki iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy barqarorlik masalasi sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda. 2024 yilda O'zbekistonda "Kiberxavfsizlikni ta'minlash to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi va 2025 yildan boshlab kiberxavfsizlik sohasi bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlashga doir davlat dasturi kuchga kirdi.

Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlik va xavflarni boshqarish masalalari nafaqat texnik, balki iqtisodiy barqarorlik va jamiyat ishonchi bilan bevosita bog'liq dolzarb muammoga aylangan. Iqtisodiyotning barcha sohalarida qulaylik uchun raqamlashtirish axbarot tizimidan foydalanilganda, kiberxavfsizlik masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ma'lumotlar raqamli formatga o'tkazilsa, elektron ko'rinishda saqlansa, shundagina axborot va kiberxavfsizlik masalasi dolzarblik kasb etadi. Davlatimiz rahbari tomonidan kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasi mutaxassislariga shunday talab qo'yilganki, ular bu borada ro'y bergan noxush hodisalarni o'rganishlari va bartaraf etishlari emas, balki bunday holatni oldindan ko'ra bilishlari, ya'ni oldini olishga xarakat qilishlari kerak.

Raqamli texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha jabhalariga kirib kelgan bir


paytda, kiberxavf-xatarlar ham tobora murakkablashib, iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin bo'lgan real tahdidlarga aylangan. Bu xavflarning ko'lami kichik biznesdan tortib, milliy iqtisodiyotga qadar kengayib bormoqda. Ayniqsa, 2024–2025 yillarda global miqyosda kiberhujumlar sonining keskin oshgani fonida, bu xavflarning ko'lami kichik biznesdan tortib, milliy darajadagi iqtisodiyotlargacha kengayib borayotgani kuzatilmoqda. Mazkur, kiberxavflarning asosiy turlari:

Phishing (Soxta xabarlar va havolalar orqali ma'lumotlarni o'g'irlash. Eng keng tarqalgan usullardan biri bo'lib, foydalanuvchilarga bank, pochta yoki boshqa tashkilotlardan kelganidek ko'rsatib, yolg'on havolalar yuboriladi. Natijada foydalanuvchi o'z login-parollari, bank kartasi ma'lumotlarini firibgarlarga o'zi taqdim etadi.

Ransomware (Ma'lumotlarni bloklay, pul talab qilish. Maxsus zararli dastur tizimlarga tushib, kompyuter yoki serverdagi ma'lumotlarni bloklaydi. Hujumchi bloklangan ma'lumotlar uchun pul (odatda kriptovalyutada) talab qiladi. Bunday hujumlar 2024 yilda sog'liqni saqlash va moliyaviy sohalarida ko'plab zarar yetkazdi.

Insayder tahdidlar (Ichki xodimlar tomonidan sodir etiladigan xatolik. Korxona yoki tashkilot ichida ishlovchi xodimlar bilib-bilmay tizimga zarar yetkazishi yoki ma'lumotlarni sotib yuborishi mumkin. Ayniqsa bank va sug'urta sohalarida bu xavf juda dolzarb.

IoT xavflari (aqlli qurilmalar orqali hujumlar. Raqamli iqtisodiyotda IoT qurilmalar (masalan, aqlli kameralar, printerlar) keng qo'llaniladi, ammo ularning ko'pchiligi yaxshi himoyalanganmagan. Bu orqali butun tarmoq tizimiga kirish imkoniyati bo'lishi mumkin. "Kiberxavfsizlik markazi" DUK tahlillariga ko'ra, 2024-yilning birinchi choragida O'zbekistonning internet tarmog'i milliy segmentida 3 million 290 mingdan ortiq kiberhujumlar qayd etilgan. Bu ko'rsatkich mamlakatning raqamli infratuzilmasi tobora kengayib, kiberxavfsizlik tahdidlari ham ortib borayotganini anglatadi. Internet tarmog'i segmentida zaifliklar soni 2024-yilda rasmiy veb-saytlarda aniqlangan zaifliklar soni 1,200 tadan ortdi. Bu, avvalgi yillarga nisbatan 3-4% o'sishni ko'rsatadi. Kiberxavfsizlik intsidentlari: 2024-yil davomida 160 tadan ortiq kiberxavfsizlik intsidentlari ro'y berdi. Bu, avvalgi yilga qaraganda 2% ga ko'proqdir. 600 dan ortiq zaifliklar bartaraf etildi. Zaifliklar orasida: kontentni ruxsatsiz yuklash — 110 ta. Defeys (Saytni buzish) — 35 ta. Ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish — 20 ta. DDoS hujumlar — 5 ta. Spam xabar yuborish — 4 ta. URLni qayta yo'naltirish — 3 ta. Saytlararo scripting (XSS) — 3 ta. Phishing (soxta xabarlar) — 2 ta (1-rasm).



1-rasm. “Kiberxavfsizlik markazi” DUK tahlil natijalari.

Kibermakonda xavfsizlik bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishiga dasturiy kodda xavfsizlik xatolari mavjud bo'lgan kontentni boshqarish, dasturiy vositalarning eskirgan versiyalari bilan ishlash, kirish parollarining osonligi, xavfsiz bo'lmagan manbalardan yuklab olingan shablonlar, viruslar bilan zararlangan kompyuterlarda veb-saytlarni boshqarish kabilar sabab bo'ladi

Raqamli iqtisodiyotning o'sishi bilan birga ma'lumot almashinuvi, onlayn to'lovlar, elektron hujjat aylanishi va raqamli xizmatlar soni keskin ortdi. Bularning barchasi axborot resurslarini kiberxavflarga nisbatan himoyasiz holatga keltirdi. O'zbekiston sharoitida esa bu xavf moliyaviy xizmatlar, davlat platformalari (my.gov.uz, soliq.uz), sog'liqni saqlash axborot tizimlari va elektron ta'lim portallariga ham tahdid solmoqda. Shu sababli, bu sohada zamonaviy himoya texnologiyalarini joriy etish — iqtisodiy o'sishni kafolatlash uchun zarur shartlardan biridir.

Raqamli iqtisod va kiberxavfsizlik bir biriga chambarchas bog'liqdir chunki raqamli iqtisodning asosi – axborot texnologiyalari, internet, raqamli to'lov tizimlari, onlayn xizmatlar va bulutli hisoblash tizimlari, bularning barchasi ishonchli va xavfsiz muhitni talab qiladi.

Yurtimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qanchalik e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, kiberxavfsizlikni ta'minlashga ham shuncha ahamiyat berilmoqda.

Bunga yaqqol misol sifatida har yili xalqaro elektroaloqa ittifoqi tomonidan e'lon qilinadigan kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro global reytingda yuqori o'rinlardan joy olishini ko'rsatish mumkin.

ABI Research va ITU(xalqaro elektroaloqa)ning qo'shma loyihasi sifatida yaratilgan Global Kiberxavfsizlik Reytingi – bu zamonaviy dunyoda davlatlar o'rtasidagi axborot xavfsizligi salohiyatini baholashga xizmat qiluvchi muhim vositadir.

Bu reyting orqali davlatlar o'zlarining raqamli mudofaa strategiyalarini takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va raqamli iqtisodda barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bunda majburiyatlar darajasi besh sohada baholanadi: huquqiy choralar, texnik choralar, tashkiliy choralar, salohiyatning rivoji va xalqaro hamkorlik. O'zbekiston Milliy kiberxavfsizlik indeksi (National Cyber Security Index) da 88 o'rinda, Kiberxavfsizlik bo'yicha global reytinglarda O'zbekiston kiberxavfsizlik bo'yicha global reytinglarda 2024-yilda sezilarli yutuqlarga erishdi.

Xalqaro Elektroaloqa Ittifoqi (ITU) tomonidan e'lon qilingan "Global Cybersecurity Index 2024" hisobotiga ko'ra, O'zbekiston 89,2 ball to'pladi va reytingning ikkinchi (ilg'or) guruhiga kirdi. AKT rivojlanganlik indeksi (ICT Development Index) da 95 o'rinni egallagan. (2-rasm)



2-rasm. O'zbekistonning kiberxavfsizlik bo'yicha global reytinglardagi o'ri.

Kibermakonda xavfsizlik bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishiga dasturiy kodda xavfsizlik xatolari mavjud bo'lgan kontentni boshqarish, dasturiy vositalarning eskirgan versiyalari bilan ishlash, kirish parollarining osonligi, xavfsiz bo'lmagan manbalardan yuklab olingan shablonlar, viruslar bilan zararlangan kompyuterlarda veb-saytlarni boshqarish kabilar sabab bo'ladi.



3-rasm. Kiberxavfsizlikka tahdidlar ulushining tasnifi

Internetning milliy segmentini monitoring qilish natijasida 2024 yilda 4 433 789 ta, 2023 yilda esa 11 020 235 kiberxavfsizlikka tahdidlar aniqlangan.

Shundan, 18,55% - SQL in'yeksiya, 18,17% - protokollarni majburiy qo'llash, 17,13% - cheklangan faylga ruxsatsiz kirish, 15,70% - kodni masofadan turib bajarish, 14,76% - zararli kodlarni yuborish, 6,33% - shubhali so'rovlar, 6,10% - PHP ma'lumotlari tarqalishi, 2,36% - PHP in'yeksiya hujumi, 0,35% - Java ma'lumotlari tarqalishi, 0,32% - protokol bo'yicha hujum uyushtirish bilan bog'liq.

Bu tahlillar kiberxavfsizlik masalasining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi, boisi dasturiy zaifliklar buzg'unchiga axborot tizimi yoki veb-sayt, shuningdek, fayl va

ma'lumotlarga masofadan kirish, fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlari chiqib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Kiberxavfsizlik choralari bu kabi holatlarning oldini oladi. Kiberxavfsizlikka doir me'yorlarning huquqiy jihatdan mustahkamlanishi nihoyatda zarur.

Raqamli olam hali-hamon huquqiy jihatdan o'z maqomini aniq belgilay olgani yo'q. Kun sayin tahdidlarning yangi tur va shakllari paydo bo'layotganligi, ularni qonunchilikda aks ettirish zarurligi talab etadi.

Kiberxavfsizlikka doir milliy strategiyani ishlab chiqish milliy kibermakonda jinoyatchilikka qarshi qurashish sohasidagi faoliyatni tartibga soladi. Zero, virtual olamdagi jinoyatchilikning zarar va xavfi real olamdagidan kam emas.

2024-2025 yillarga mo'ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiyaga ko'ra kiberxavfsizlikning yagona tizimi va muhim hisoblangan infratuzilmani kiberhujumlardan himoya qilish sohasidagi huquqiy bazani yana takomillashtirish va "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunda esa "Kiberxavfsizlik haftaligi" kabi keng ommaviy axborot kampaniyalarini joriy qilish, davlat organlari va yirik IT-infratuzilmalarda SOC (Security Operations Center) tizimlarini yo'lga qo'yish, zero Trust Architecture (Ishonchli kirishdan butunlay voz kechish) tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, mahalliy antivirus va xavfsizlik dasturlarini rivojlantirishga grantlar ajratish, davlat tashkilotlarida kiberxavfsizlik bo'yicha ichki bo'linmalar tashkil qilish majburiyati. Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirish jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, dunyo bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, iqtisodiy ravnaq topish, aholiga qulayliklar yaratish imkoniyatini beradi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, raqamli hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda.

Raqamli tizimlar va internetning keng tarqalishi bilan birga, tashkilotlar va davlatlar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi yanada tezlashdi, bu esa axborot xavfsizligini ta'minlashni yanada muhimlashtirdi. Shu qatorda zamonaviy kiber tahdidlar doimiy ravishda yangi usullar va texnikalar bilan rivojlanmoqda. Shu sababli, kiber hujumlarga qarshi kurashish uchun samarali vositalar zarur. Axborot xavfsizligini ta'minlashda inson faktori ham muhim ahamiyatga ega. Ma'lumotlar xavfsizligi, texnologiyalarni qo'llashdan tashqari, insonlarning xatti-harakatlariga ham bog'liqdir. Nihoyat, xavfsizlik bo'yicha samarali siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish kerak. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga, axborot xavfsizligi uchun zarur bo'lgan usullar va vositalar ham doimiy ravishda yangilanib bormoqda.

Kelajakda, sun'iy intellekt va mashina o'rganish texnologiyalarining rivojlanishi axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. texnologiyalar tahdidlarni oldindan aniqlash va xavfsizlikka bo'lgan yondashuvlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Shu

bilan birga, davlatlar va tashkilotlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish va axborot xavfsizligi bo'yicha global standartlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar zahirida xalqimizga qulayliklar yaratish maqsadi yotibdi. Kiberxavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilishi raqamli imkoniyatlardan ishonchli va xavfsiz tarzda foydalanishga zamin bo'lib kelmoqda. Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirish jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, dunyo bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, iqtisodiy ravnaq topish, aholiga qulayliklar yaratish imkoniyatini beradi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

33. Abdulloev, A. J. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING.
34. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). RAQAMLASHTIRISH-MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(27), 113-121.
35. Abdullayeva, H. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATSION MARKETINGDAN FOYDALANISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 49(49).
36. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. European Journal Of Business Startups And Open Society, 2(11), 1-5.
37. Giyazova, N.B. (2024). INCREASING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 455-461.
38. Giyazova, N.B., & Sh.B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR. Science and innovation, 3(Special Issue 42), 482-489.
39. Shukhratovna, U. M., & Bayazovna, G. N. (2025). FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MOBILE INTERNET. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(49), 250-256.
40. Таирова, М. М., & Зойитов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. Science and innovation, 3(Special Issue 42), 371-376.
41. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы, (1), 115-118.
42. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2022). The role of banking and accounting in the development of small business and

entrepreneurship. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036,11, 136-143.

43. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment Of Agritourism Clusters In Uzbekistan Based On The Principles Of Sustainable Tourism. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 35(35).

44. Raxmatullayeva, F. M. (2024). MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. *Indexing*, 1(1).

45. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 496-502.

46. Mubinovna, R. F. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOTDA PLATFORMALAR AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 220-225.

47. Rasul o'g'li, K. U., & Bayazovna, G. N. (2025). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 4(37), 342-348.

48. Aliyor o'g'li, X. S., & Bayazovna, G. N. (2025). KIBERXAVFSIZLIK- RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(31), 113-117.

49. Shuxratovich, T. B., & Bayazovna, G. N. (2025). INSON KAPITALINING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI O'RN. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024, 4(38), 187-191.

50. Shokirjon o'g'li, J. S., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA EKOLOGIK BARQARORLIK: BLOKCHEYNNING YASHIL IQTISODIYOTDAGI ROLI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(50), 418-425.

51. Ramz o'g'li, S. D., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI VALYUTA VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(31), 130-135.

52. Rustam o'g'li, R. J., & Bayazovna, G. N. (2025). MOBIL TO'LOVLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 193-197.

53. Giyazova, N. B., & Azimxon ogli, Q. S. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(29), 159-163.

54. Giyazova, N. B., & Dildora, I. (2024). YASHIL IQTISODIYOT VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(29), 213-217.

55. Bayazovna, G. N., & Ayubovich, X. A. L. (2024). THE CONCEPT OF FINANCE AND THE STAGES OF ITS FORMATION. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (7), 673-679.

56. Bayazovna, G. N. (2024). GEOMARKETINGNING RESTORAN BIZNESIGA TADBIQ ETILISHINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 484-490.
57. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27, 27.
58. Xalqaro Ma'lumotlar Korporatsiyasi (IDC). Jahon bo'yicha IoT xarajatlari bo'yicha qo'llanma 2022.
59. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon.
28. <https://www.itu.int> - Halqaro elektroaloqa uyushmasining rasmiy sayti.
29. <https://ncsi.ega.eg/country/uz/> - National Cyber Security Index.
30. <https://lex.uz/uz/docs/-5458249>
31. <https://csec.uz> - Kiberxavfsizlik markazi davlat unitar korxonasi rasmiy sayti.